



### 3- SINF O‘QISH DARSLARIDA O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORI NAMUNALARINI O‘RGATISHNING AHAMIYATI

*Adizova N.B.*

*Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti*

*Yoriyeva M.O.*

*Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

**Tayanch soʻzlar:** bolalar adbiyoti, haqqoniylik va badiiylik, amaliy, kitobiy, nazariy, nashr taraqqiyoti.

**Ключевые слова:** детская природа, подлинность и художественность, практическая, книжная, теоретическая, издательская разработка.

**Key words:** children’s nature, authenticity and artistry, practical, book, theoretical, publishing development.

**Резюме:**

Ushbu maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, mazkur adabiyotdagi davlar bilan bog‘liq shakliy yangilanishlar, undagi obrazlar tizimi hamda ikkala adabiyotga xos bo‘lgan mushtarak jihatlar haqida fikr yuritilgan.

**Резюме:**

В данной статье рассматриваются специфические особенности узбекской детской литературы, формальные обновления, связанные со временем в этой литературе, система образов в ней, а также общие моменты, характерные для обеих литератур.

**Summary:**

This article examines the specific features of Uzbek children’s literature, formal updates associated with time in this literature, the system of images in it, as well as common points characteristic of both literatures.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning milliy o‘zligi va ma’naviy ildizlarining asosi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga e’tibor har qachongidan ham kuchaydi. “Yoshlar o‘rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish” muhim vazifa sifatida belgilandi. Axborot oqimi shiddat bilan kirib kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida shonli tariximiz va betakror madaniyatimiz, boy ma’naviy qadriyatlarimiz aks etgan og‘zaki ijod namunalarini saqlash, ajdodlarimiz yaratgan nomoddiy merosni avaylash, bu yodgorliklarning inson



ma'naviy kamolotidagi o'rnini ochib berish hamda uni kelajak avlodga yetkazish folklorshunoslar oldida turgan muhim vazifalardir. Xalqimizning ko'p asrlar davomida qaror topgan umummilliy qadriyatlarini tiklashda folklor eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Uning bir qismi bo'lgan bolalar folklorini kattalar folklori kontekstida tadqiq etish ana shunday muhim muammolardan biridir. Ularni folklorshunoslikning yangicha konsepsiyalari va nazariy qarashlari asosida chuqur o'rganib, janr, obraz va motivlarining genezisini aniqlash, o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy yoritish yangi xulosalar beradi.

XX asr boshlarida rus folklorshunosligida qiziqmachoqlarning janriy tabiatini aniqlashga oid maxsus tadqiqotlar paydo bo'lgan. Ular haqidagi ilk nazariy qarashlar O.I.Kapitsa tomonidan ilgari surilgan. U rus bolalar folklorini tasnif qilargan ekan, o'zigacha bo'lgan nashrlarda qiziqmachoqlarning ovutmachiq, sanama, ag'darmachiq, tez aytish, tegishmachiq kabi bolalar folklorining boshqa janrlari bilan aralashtirib yuborilishini alohida ta'kidlab, qiziqmachoqlarning o'ziga xos xususiyatlarga ega mustaqil janr ekanligini ko'rsatib o'tdi. Lekin uning o'zi ham ba'zan qiziqmachoqlar bilan kattalarning bolalarga atalgan qo'shiqlarini qorishtirib yuborgani kuzatiladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ijodkorligini oshirishda, albatta, folklorning o'rnini muhim. Bolalar folklorining asosiy maqsadi o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori, axloqiy tarbiyasi, bir so'z bilan aytganda, milliy g'urur va iftixor motivi bilan yog'rilgan shaxsni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Folklor yo'nalishidagi o'qitish turli axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq qilingan va bu borada anchagina ilmiy-ma'lumotlar to'plangan, tarbiyaviy tizimlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan, amaliyotga tatbiq etilgan. Ammo o'qitishning o'quvchi faoliyatini takomillashtirishdagi ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Zero, ma'rifatparvar o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi haqida gapirib shunday degan edi: "Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur".

Istiqlol yillarida folklor namunalarini tashviq va targ'ib etishga jiddiy e'tibor qaratildi. Folklor – milliy qadriyatimizning tarkibiy qismi sifatida yuksak qadr topdi. Xalqning barcha janrlardagi og'zaki ijodi durdonalari ijroda saqlanib qolmoqda. Sho'ro davrida kam e'tibor qaratilgan ayrim janrlar qayta tiklanmoqda. Istiqlol yillarida nafaqat xalq badiiy ijodiga, balki xalq ommaviy dekorativ san'ati, xalq musiqasi va raqsiga nisbatan ham e'tibor kuchaytirildi. Xalq ijodi bilan bog'liq barcha sohalarga milliy qadriyatlarimiz sifatida keng yo'l ochib berildi. Xalq og'zaki ijodi namunalari yosh avlodni yuksak axloqli, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qila olishini inobatga olib, maktabdan boshlab o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalarini



o'rgatish ko'zda tutildi. Bugungi kunning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda o'qish va o'qitish ishlarida ham yangilanish jarayoni avj olgan. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni va ilg'or o'qitish usullarini, ilm-fan yutuqlarini qo'llashga e'tibor kundan-kunga kuchaytirilmoqda. Ayniqsa, o'quv dasturlariga kiritilgan materiallarni yoshlarning har tomonlama chuqurroq o'zlashtirib olishlariga yordam beradigan vositalarni aniqlashga ehtiyoj ortmoqda. Folklor shunday vositalardan biri ekanligi bilan alohida e'tiborni tortadi.

Xalqimizning ma'naviy mulki bo'lgan folklor asarlari yoshlarni hamisha imon-e'tiqodga, insof-diyonatga, Ona Vatanni e'zozlash va uni ko'z qorachig'iday saqlashga da'vat etib kelgan.

Iqtidorli va iste'dodli ijodkorlar tomonidan yaratilib, asrlar osha kuylanib kelingan bu ma'naviy meros eng olijanob his-tuyg'ularni, ezgu g'oyalarni hamisha o'z ajdodlari qalbiga jo qilib kelgani va kelayotgani bilan nihoyatda qadrlidir.

Zamonaviy pedagogika pedagogik madaniyatni egallash uchun pedagogik tarixiy merosni yaxshi bilishi talab etadi. Asosida umuminsoniy g'oyalar, ta'limiy-axloqiy qarashlar, farzandni har tomonlama kamol toptirish muammosi, insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odamiylik, oqillik, himmatlilik va muruvvatlilik fazilatlarini insonda tarbiyalash o'giti, ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirish, bu sohada ilg'or mamlakatlarning tajribasidan foydalanish, til bilishning foydasi talqin etilgan folklor asarlari pedagogik meros sifatida tarbiya sohasida o'z o'rni va qimmatiga egadir. Xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasini folklorshunoslik deymiz. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil fan hisoblansada, o'rganish obyekti badiiy adabiyot bo'lgani sabab bir qator umumiy va mushtarak jihatlari bor. Bolalar folklori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir. Boshlang'ich sinf darsliklarida keltirilgan maqollar ham ularning ma'naviy dunyosini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqollarda so'z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, shakl yaratilishi, maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Dunyodagi barcha xalqlar og'zaki ijodida maqollarchilik shaklan va mazmunan o'zaro yaqin janr deyarli yoq. Xalq maqollari shaklan she'riy va nasriy bo'ladi. Ammo nasriy maqollar ham she'riy misralarni eslatadi. Maqollarda hayotiy voqea – hodisa haqida qat'iy hukm ifodalanadi. Boshlang'ich sinfda bir necha



mavzudagi maqollar mavjud. Misol uchun 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darliklarida vaqt haqida quyidagicha maqollar mavjud:

*Vaqt tog‘ni yemirar,  
Suv toshni kemirar.*

*Uch kun barvaqt turgan bir kun yutar.*

*Yoqut bilan vaqt topilmas,  
Vaqt bilan yoqut topilar.*

*Vaqting ketdi – naqding ketdi.*

Bundan tashqari, darslikda to‘g‘rilik va yaxshi so‘zlash mavzusida quyidagicha maqollarni tahrir davomida uchratdim.

*Gapni oz so‘zla,  
Ishni ko‘p ko‘zla.*

*Yaxshi so‘z qand yedirar,  
Yomon so‘z pand yedirar.*

*Erta turgan ish bitirar,  
Kech turgan ko‘p turtinar,*

*Achchiq savol berib,  
Shirin javob kutma.*

*Kattaga hurmatda bo‘l,  
Kichikka izzatda.*

Kabi maqollarda bolalar ijodkorligini shakllantirish uchun turli xildagi metodlardan foydalansa o‘rinli. Misol uchun: “Davvom ettir”, “Qo‘shningni top”, “Zanjir” usuli yoki ona tili darsi bilan bog‘lab “qarama-qarshi so‘zlarni toping” kabi mashg‘ulotlarni qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchi yana ham o‘z tafakkurini boyitib boradi, o‘qituvchi maqol ma‘nosini bolalar ongiga oson yetkazadi. 3-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida ham maqollar berilgan bunda quyidagi mavzularda maqollarni tahlil qildim:

*Ariqni suv bezar, odamni – so‘z*

*Yomon gap – bosh qozig‘i,  
Yaxshi gap – jon ozig‘i.*



*Dunyoni yel buzar, odamni – so‘z.  
Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so‘z jonni ilitar.*

*Tilingda bo‘lsa boling,  
Kulib boqar iqboling.*

Bunday mavzulardagi maqollarda bolalarga quyidagi savollar bilan fikrlarini so‘rash mumkin: So‘z odamni qanday bezashi mumkin?, Yel dunyoni qanday buza oladi, sizningcha?, so‘zning issig‘i qanday bo‘ladi? kabi. Yoki o‘quvchilarga shu maqollardan bittasini tanlab o‘nta gapdan iborat matn tuzishni mustaqil topshiriq sifatida berish mumkin. Bundan tashqari, darslikda quyidagicha til haqidagi maqollar bor:

*Til – dil kaliti.*

*Yomon so‘zning qanoti bor.  
Aytilgan so‘z – otilgan o‘q.*

*Ko‘p o‘yla, so‘ng so‘yla.*

*Tig‘ jarohati bitar,  
Til jarohati bitmas.*

*Tilga e‘tibor – elga e‘tibor.*

*Gapning qisqasi – yaxshi,  
Qisqasidan hissasi – yaxshi.*

Kabi maqollarda mazmunini o‘quvchilar bilan muhokama qilish mumkin. Bunda “so‘z o‘yini”dan foydalanish mumkin. Bunda, o‘quvchilar so‘zlarni tartiblab maqollarni hosil qilishadi. So‘ng hosil bo‘lgan maqolning ma‘nosini izohlash so‘raladi. Bundan tashqari, 4-sinf o‘qish darsligini tahlil qilganimizda, Vatan haqidagi, do‘stlik haqidagi, kitob, ilm-fan, odob-axloq ota-ona va farzand haqidagi maqollarni ko‘rib chiqdik.

#### Adabiyotlar:

1. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta‘limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped.f.dok. diss... aftoref. – T., 2003.
2. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1980. – B.118.
3. Abduruhmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. “O‘qituvchi”, -T.: 1980. – B.207-209.
4. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta‘lim maktabida o‘qitish metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 229-b.